

Date: 23rd January-2025

MAXTUMQULI SHE'RIYATI BADIYYATI

Ishmuratova Muhayyo

Urganch davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada Maxtumquli she'rlarining jarangdorligi, jo'shqinligi va yurakka yetib borishi bilan xalqimiz ko'nglidan joy olganligi, ijodi haqida so'z boradi. Bundan tashqari, maqolada Maxtumquli ijodiyotidagi islomiy ruh haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ruh, ko'ngil, tasavvuf, hadis, ishq, dunyo, ma'rifat, islom.

Аннотация: В статье рассказывается о произведениях Махтумкули, покоровших сердца нашего народа своей звучностью, задором и проникновением в сердце. Кроме того, в статье также рассматривается исламский дух в творчестве Махтумкули.

Ключевые слова: душа, сердце, мистика, хадис, любовь, мир, просветление, ислам.

Annotation: The article talks about Makhtumkuli's works, which have won the hearts of our people with their sonorousness, enthusiasm and reaching the heart. In addition, the article also discusses the Islamic spirit in Makhtumkuli's art.

Key words: soul, heart, mysticism, hadith, love, world, enlightenment, Islam.

Maxtumquli Firog'iy xalqimizning sevimli shoirlaridan biridir. U XVIII asr she'riyatining buyuk namoyondalaridan biri bo'lib, turkiy she'riyat olamining sevimli shoiri hamdir. Maxtumquli ijodida insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanni sevish, yaratganga bo'lgan ishonch g'oyalari yetakchilik qiladi. Uning she'riyatida pok islomiy ma'rifat ruhi ufurib turadi. Maxtumqulining she'riyatga bo'lgan mehri, dinni yaxshi tushunib, anglyadigan inson bo'lib yetishishida otasining o'rne juda katta. Otasi Davlatmand Ozodiy o'z davrining taniqli shoirlaridan biri bo'lib, uning she'riy kitobi hamda "Va'zi ozod" nomli asari mavjud. Davlatmand Ozodiy shunchaki shoir emas, balki zamon allomasi, taqvo va ma'rifat ahlining peshvosi, avliyoyi barhaq ekanini Maxtumqulining bir necha marsiyasidan ham anglash mumkin. Shoir otasi haqidagi marsiyada yozadi:

Molu davlatlarga ko'ngil qo'ymadi,

Bu jahonning ishratini suymadi,

Eski sholdan ortiq po'shish kiymadi,

Oxirat uyi bo'ldi qasdi otamning. (Mirzo Kenjabek tarjimasi)⁸

"Munkir bilmas, muxlislarning shakki yo'q, Payg'ambar dastidir dasti otamning" satrlari hazrati Rasululloh (s. a. v.)ning "Kimki bir olim kishini hurmat qilsa, muhaqqaq, u meni hurmat qilgan bo'ladi" hamda: "Har bir muttaqiy olim mening ahli baytimdandir" degan muborak hadisi shariflarga asoslangan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Maxtumqulining yetuk va sevimli shoir bo'lishida otasining roli alohida

⁸ F.D.Sapayeva. Tarjimashunoslik: Matn va mahurat. - Toshkent.: 2016. - B.3



Date: 23rd January-2025

ahamiyat kasb etadi. Uning “Ota o‘g‘il dardlashuvi” she‘rida shunday misralar bor: “Qur‘on o‘qib yurgil, yaxshi Kalomdir, Dushman berahmdir, dining Islomdir”.

Maxtumquli otasi kabi boshlang‘ich ta‘limni qishloq maktabida olib, o‘sha davr madaniyat va ilm-fan markazi bo‘lmish Xiva shahridagi Sherg‘ozixon madrasasida ham tahsil oladi. Bundan tashqari, Qur‘oni Karimni xatm qiladi, diniy bilimlari yanada kuchayadi. She‘rlaridan birida shoir shunday deydi:

Maxtumquli, sirim ko‘pdir,
Men naylayin, ochgan yo‘qdir,
O‘lmoq haq, tirilmoq haqdir,
O‘qidim Qur‘on ichinda!..(Mirzo Kenjabek tarjimasi)⁹

Maxtumquli she‘larida hayot va o‘lim, inson va borliq, go‘zal insoniy fazilatlarni tilga olar ekan ularning barchasini islomiy ruh bilan tasvirlagan. Bundan tashqari, ushbu she‘rlarda tasavvufiy qarashlar ham yaqqol sezilib turadi. Ba‘zi she‘rlariga esa, Qur‘oni Karim oyatlari, hadisi shariflar mazmuni singdirilgan. Maxtumquli ijodida payg‘ambarlar, Jaloliddin Rumi, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Abdurahmon Jomiy kabi ulug‘ zotlar juda ko‘p marotaba tilga olinadi

Maxtumquli she‘riyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, unda kitobxonga hayotiy dars, tarbiya, o‘gitlar go‘zal tarzda eslatib o‘tiladi. Shoirning “Bo‘larsan” she‘ri ham bunga yaqqol misol bo‘la oladi:

Yaxshilar yonida yurgil sen o‘zing,
Dur bo‘lsin doimo so‘zlagan so‘zing,
Olimlarni uqsang, ochilar ko‘zing,
Johilni tinglasang, ko‘rdek bo‘larsan.
Maxtumquli, qarab so‘zla doshingni,
Joyin bilib tortgil, bo‘lsa oshingni,
Komil topsang, qo‘y yo‘lida boshingni,
Er ketida yursang erdek bo‘larsan.(Jumaniyoz Sharipov tarjimasi)¹⁰

Maxtumquli yuqoridagi misralar orqali inson har doim yaxshi kishilarni do‘st tutmog‘i, yomon fe‘lli insonlardan uzoq yurish kerakligini ta‘kidlamog‘da. Har bir so‘zingni ziynatlaginki, u dur kabi qimmatga ega bo‘lsin, tinglayotgan odaming, hamsuhbating olimlardan bo‘lsin, ular davrasida hargiz ilming ortadi deya bayon etmog‘da. Maxtumquli ijodining ayrichaligi shundaki, u har doim nasihatlarini juda soda va xalqona tilda, badiiy tashbehtar orqali xalqqa yetkazib beradi. Shuning uchun ham hikmatlari og‘izdan og‘izga o‘tib, qo‘shiq bo‘lib kuylanmog‘da. Shoir she‘riyati badiiyati yengilligi, soda til va yengil ruhda yatarilgani bilan ahamiyatlidir.

Maxtumquli ijodining yutuqlaridan yana biri shundaki, uning she‘riyati bilan xalq og‘zaki ijodi bir-biriga hamohangdir. U turkman xalq maqollarini, sharq adabiyotining didaktik ruhdagi pand-nasihatlarini o‘zining go‘zal ijodi orqali yanada boyitdi. Uning pand-nasihat va o‘git ruhida yozilgan ajoyib asarlari Xorazm ijodkorlari tomonidan kuyga

⁹ Maxtumquli Firog‘iy.Saylanma. -Toshkent.: 2008.-B.23

¹⁰ Maxtumquli.Saylanma. -Toshkent.:2004.-B.86



Date: 23rd January-2025

solinib kuylangan va kuylab kelinmoqda. Bundan tashqari butun O'rta Osiyo xalqlariga mashhur bo'lgan Xorazm suvoralarining ham matni aynan, Maxtumquli qalamiga mansub hisoblanadi. Xususan, "Ayrilma" she'rini xushovoz xonanda Komiljon Otaniyozov maromiga yetkazib kuylagan. Bugungi kunda ham ushbu taronani ijodkorlarimiz sevib kuylab kelmoqdalar:

Mastona yurgancha, g'ayri yurtlarda
Unib o'sgan o'z yurtindan ayrilma!
Bir ma'lun kaklikdek nafsing ug'runda
Doma dushib qanotingdan ayrilma!
Nomardlara muxannaqlar nochorlar
Taoming yeb, ishing bo'lsa qocharlar,
Siringni fosh etib, aybing ocharlar,
Ta'lim bergan ustozingdan ayrilma!

Xulosa qilib aytganda, Maxtumquli she'rlari xalq, makon va zamon tanlamaydi. Shoir she'rlari har bir inson qalbining eng nekbin tuyg'ularini ham uyg'ota olish qobilyatiga ega. Uning she'rlaridagi ohang va ko'tarinki ruh insonni har doim to'g'ri yo'lga boshlash va faqat yaxshi amallar ila ziynatlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maxtumquli saylanma. Mirzo Kenjabek tarjimasini. Toshkent. 2004.
2. Maxtumquli Firog'iy saylanma. Jumayev A. Zulpiyev J. tarjimalari. Toshkent. 2008.
3. Quramboev K. Maxtumquli - ilhom chashmasi. Toshkent. 2012.
4. Sapayeva F. Tarjimashunoslik: matn va mahorat. Toshkent. 2016.
5. Nazarov B. Maxtumqulining zamonviyligi. O'zbek tili va adabiyoti jurnali. Toshkent. 2008.
6. www.ziyouz.com

